ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№8(1)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

*Elektron nashr. 338 sahifa,*
*3-avgust, 2026-yil.*



**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi ..... 10
Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna

Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalaridan foydalangan holda masalalar yechish ..... 13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li

Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili ..... 17
Mutallibjonov Boburmirzo

Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi ..... 26
Nosirova Feruza Baxadir qizi

Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli ..... 30
Gafurova Mahfuza Abbosovna

Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi ..... 35
Ravshanova Uldona Narziboyevna

Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni ..... 39
Vorisova Barnoxon Olimjon qizi

Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish ..... 43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li

Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antifragil yondashuvning o'rni ..... 51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi

Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari ..... 57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna

Talabalarning o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish ..... 61
G'ofurov To'lqinjon

Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching ..... 67
Ismailova Aziza Dilshodovna

Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта ..... 72
Канаатов Есимкан

Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti ..... 76
Abdullayev Amirulla Xazratovich

Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi ..... 81
Pardayeva Kamola Sultonovna

Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish ..... 86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich

Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diagnostik tizimini joriy etish va boshqarish ..... 91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich

Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarning o'qish samaradorligini oshirish ..... 96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli ..... 99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich

Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari ..... 103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna

Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari ........ 108
Xo'janiyozov Shokir Rustamovich

Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi ........ 114
Isroilova E'zoza Akmal qizi

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari ........ 119
Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna

Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari ........ 124
Abduraximova Muxabbat Allayevna

Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi ........ 129
Sottarov Abduvali Umirqulovich

Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish ........ 133
Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi

Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar ........ 137
Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar ........ 142
Babajanova Gulmira Muratbayevna

Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations ........ 147
Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi

Клинические особенности аллергодерматозов у лиц, проживающих в Ташкентской области ........ 153
Абдуллаева Ф. Б., Саипова Н. С.

Tyutorlik faoliyatining pedagogik ahamiyati ........ 160
Ashirova Gulnora Xayrullayevna

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish ........ 164
Nurmuratova Iroda Nuriddinovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda diqqat yetishmasligi va giperfaollik: mnemotexnik korreksiya ........ 169
Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna

The Historical Development of Translation ........ 173
Sharopova Gulnoza Odil qizi

Integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan metodik tizim ........ 176
L. T. Xudaybergenova

Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlari metodikasini ishlab chiqish ........ 180
G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi

Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni: ilmiy adabiyotlar sharhi ........ 186
Xalimova S. A.

The Role and Opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the Management of Educational Institutions ........ 191
Abduqahorova Lobar Oybekovna

Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi ........ 197
Xidirova Maftuna Ilhom qizi

Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning qiyosiy tahlili ........ 205
Boltayeva Nasiba Ilhom qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik tajribasi va "2+1" dual ta'lim modeli ... 209
**Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich, Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li, Ibragimova Dinara Rustam qizi, Karimova Oygul Ro'ziyevna, Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich**

Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarining metodikasini ishlab chiqish ... 212
**G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi**

Maktabgacha ta'limda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining nazariy-metodologik interpretatsiyasi ... 218
**Komila Aytmuratova**

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirishga doir mashqlar tipologiyasining samaradorligi ... 222
**Maxmudova Feruza Salimdjonovna**

O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini ... 227
**Qurbonova Malika Toxir qizi**

O'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar ... 230
**Saydaxmedova Barno Batirovna**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligi tarkibi: TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari asosidagi nazariy tahlil ... 235
**Abdusattarova Zaynab**

Fizikani o'qitishda barqaror taraqqiyot tushunchalarini rivojlantirish: O'zbekiston kontekstida adabiyotlar tahlili ... 243
**Avazova Oltin**

Futbolda 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlarning ahamiyati ... 247
**Ibragimov Qosimbek Isroil o'g'li**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanni o'qitish jarayonida sun'iy intellekt yordamida foydalanib nazariy bilimlarni hayotga tatbiq qilib o'rganish metodlari ... 253
**Jo'layeva Munira Choriyevna**

Creativity-Oriented Language Teaching in Karakalpak Folk Pedagogy ... 256
**Khodzhaniyazova Aygul Aytmuratovna**

Bo'lajak pedagoglarda estetik kompetentlikni rivojlantirishning metodik asoslari ... 264
**Saidova Dilorom Erkinovna**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ... 269
**Farhodova Sevara Qo'ziboy qizi**

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari ... 274
**Norkulova Jasmina Sodikovna**

Umumta'lim maktablarida matematik kechalar orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligi ... 277
**Saytniyozov Adham Annamuhammet o'g'li**

Tibbiy va pedagogik ta'lim jarayonida "Case Study" metodini qo'llash orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ... 282
**Shaymatova Azizaxon Rustambekovna**

Dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlariga e'tibor qaratish va ushbu jarayonni rivojlantirish ... 286
**Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi**

Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalari ... 293
**Turimbetova Sveta Muhammedaliyevna**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik menejmentini takomillashtirishda direktor o'rinbosarining roli ... 297
**Xolnazarova Shaxnoza Baxodir qizi**

Адаптивная геймификация в школьном обучении физике ... 304
**Индира Бахадуровна Ерлепесова**

Bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar ... 309
**Taylanova Sh. Z.**

Metakognitiv kompetensiya: mohiyati va mazmuni, tarixiy evolyutsiyasi........................................................ 317
Xasanova Feruza Xurramovna, Abdullayeva G. A.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy tayyorgarlikni ta'minlovchi refleksiv va motivatsion mexanizmlar................ 322
Fayziyeva Umida Asadovna

Arab tilida jumla tuzilishi: ismiy va fe'liy jumlalarning nahviy tahlili................................................................ 328
Quqonboyeva Moxlaroyim Elmurodjon qizi

"Maugli" asarining didaktik ahamiyati va obrazlar tahlili ........................................................................ 333
To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi

MAKTAB TA’LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

# ARAB TILIDA JUMLA TUZILISHI: ISMIY VA FE’LIY JUMLALARNING NAHVIY TAHLILI

Quqonboyeva Moxlaroyim Elmurodjon qizi
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi 3-bosqich talabasi

**ORCID: 0009-0004-2343-4394**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada arab tili nahv (sintaksis) ilmining markaziy masalalaridan biri bo‘lgan jumla tuzilishi tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi arab tilidagi jumla al-ismiyya (ismiy jumla) va jumla al-fi’liyya (fe’lliy jumla) turlarining grammatik xususiyatlarini, ularning tarkibiy qismlari - mubtado, xabar, fe’l, foil va maf’ul bihning o‘zaro munosabatlarini aniqlash va tavsiflashdan iborat. Tadqiqot mumtoz arab tilshunosligi manbalari (Sibavayh, Zamaxshariy, Mutarriziy) hamda zamonaviy o‘zbek va xorijiy arabshunoslik ishlariga tayangan holda tavsifiy-tahliliy metod asosida olib borildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, arab tilidagi ikki jumla turi o‘zaro qat’iy grammatik qoidalar bilan farqlanadi va bu farqlanish nafaqat shakliy, balki semantik-uslubiy ahamiyatga ham ega.

**Kalit so‘zlar:** nahv, jumla al-ismiyya, jumla al-fi’liyya, mubtado, xabar, foil, i’rob, sintaksis.

**Abstract:** This article examines the sentence structure system, one of the central issues in Arabic grammar (syntax). The main objective of the study is to analyze the grammatical characteristics of the two principal sentence types in Arabic-the nominal sentence (al-jumlah al-ismiyyah) and the verbal sentence (al-jumlah al-fi’liyyah). It also identifies and describes the relationships among their structural components, including the subject (mubtada’), predicate (khabar), verb (fi’l), agent (fa’il), and object (maf’ul bih). The research employs a descriptive-analytical approach based on classical Arabic linguistic sources (Sibawayh, Al-Zamakhshari, and Al-Mutarrizi), as well as contemporary Uzbek and international studies in Arabic linguistics. The findings demonstrate that the two sentence types in Arabic differ not only in their grammatical structure but also in their semantic and stylistic functions.

**Key words:** Arabic grammar (nahw), nominal sentence, verbal sentence, mubtada’, khabar, fa’il, i’rab, syntax.

**Аннотация:** В данной статье анализируется система построения предложения - одна из центральных проблем арабской грамматики (синтаксиса). Основная цель исследования заключается в изучении грамматических особенностей двух основных типов предложений в арабском языке - именного и глагольного, а также в определении и описании взаимосвязей между их структурными компонентами: подлежащим (мубтада), сказуемым (хабар), глаголом, действующим лицом (фа’ил) и дополнением (маф’ул бих). Исследование выполнено на основе описательно-аналитического метода с использованием классических трудов арабского языкознания (Сибавейхи, Замахшари, Мутарризи), а также современных работ узбекских и зарубежных арабистов. Результаты исследования показывают, что два основных типа предложений в арабском языке различаются не только строгими грамматическими правилами, но и своими семантическими и стилистическими особенностями.

**Ключевые слова:** нахв, именное предложение, глагольное предложение, мубтада, хабар, фа’ил, и’раб, синтаксис.

## KIRISH

Arab tili tilshunosligida sintaksis (nahv) ilmi so‘zlarning jumla ichida qanday tartibda joylashishini, ularning o‘zaro grammatik va mazmuniy bog‘lanishini o‘rganadi. Nahv ilmi arab tili grammatikasining eng murakkab va ko‘p qirrali sohalaridan biri hisoblanadi, chunki u so‘z shaklini emas, balki so‘zlarning jumla tarkibidagi vazifasini, ya’ni i’rob (kelishik) holatini belgilaydi.

Mumtoz arab tilshunosligida jumla tuzilishi masalasi juda erta davrlardan boshlab chuqur o‘rganilgan. Xususan, VIII asrda yashagan mashhur tilshunos Sibavayh o‘zining “Al-Kitob” asarida arab jumlasining ikki asosiy turini - ismiy va fe’lliy jumlalarni - ilk bor tizimli tarzda tasniflagan. Keyinchalik bu yo‘nalish Zamaxshariy, Mutarriziy kabi olimlar tomonidan yanada rivojlantirildi.

Zamonaviy tadqiqotchilar ta'kidlashicha, arab tilida gap tuzilishi ikki asosiy turga bo'linadi: jumla ismiyya (otli gap) va jumla fi'liyya (fe'lli gap). Bunda arab tilida fe'l odatda gap boshida kelishi va bu xususiyat ko'plab boshqa tillardan farqli ekanligi qayd etiladi.

Mutarriziy o'zining "Nahv risolasi" asarida jumla turlarini tushuntirishda arab tilida mavjud jumlalarni ikki turga ajratadi: ismiy va fe'lliy jumlalar. Bunda ismiy jumlaga misol tariqasida ega va kesim munosabati, fe'lliy jumlaga esa fe'l va uni bajaruvchi shaxs munosabati keltiriladi.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, arab tilini o'rganuvchi talabalar va tadqiqotchilar uchun ismiy va fe'lliy jumlalarning farqini, ularning tarkibiy qismlarini va grammatik moslashish qoidalarini tizimli tarzda anglash nahv ilmini o'zlashtirishning zaruriy asosidir. Tadqiqotning maqsadi - arab tili jumla tuzilishining nazariy asoslarini yoritish, uni amaliy misollar bilan izohlash va mavjud ilmiy manbalar asosida umumlashtirish.

Arab tili sintaksisini o'rganish tarixi juda uzoq davrni o'z ichiga oladi. Ilk davrlarda nahv ilmi asosan Qur'oni Karim matnini to'g'ri o'qish va tushunish ehtiyojidan kelib chiqqan holda rivojlangan. Vaqt o'tishi bilan bu ilm mustaqil tilshunoslik sohasiga aylandi va Basra hamda Kufa kabi ikki yirik ilmiy maktab atrofida shakllandi.

Bugungi kunda ham arab tili grammatikasi, xususan, jumla tuzilishi masalasi nafaqat an'anaviy tilshunoslikda, balki zamonaviy kompyuter lingvistikasi va mashina tarjimasi sohalarida ham dolzarb tadqiqot obyekti hisoblanadi, chunki arab tilining boy i'rob tizimi va nisbatan erkin so'z tartibi avtomatik tahlil qilish uchun murakkab vazifalar yaratadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Arab tili sintaksisi (nahv) masalalari qadimdan tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ayniqsa, arab tilidagi ismiy va fe'lliy jumlalarning tuzilishi, ularning grammatik xususiyatlari hamda i'rob tizimi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar nahv ilmining nazariy asoslarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur yo'nalishda mumtoz arab tilshunoslari bilan bir qatorda zamonaviy xorijiy va mahalliy olimlar ham salmoqli ilmiy izlanishlar olib borgan.

Nahv ilmining nazariy poydevori mashhur tilshunos Sibavayhning "Al-Kitob" asari bilan bog'liq. Ushbu asarda arab tilining grammatik tizimi birinchi marta ilmiy asosda izchil bayon etilgan bo'lib, jumla tuzilishi, i'rob, mubtado, xabar, fe'l, foil va maf'ul bih kabi asosiy sintaktik birliklarning vazifalari batafsil yoritilgan. Sibavayhning qarashlari keyingi barcha nahvshunoslik maktablari uchun metodologik asos vazifasini bajargan.

Keyingi davrda Mahmud Zamaxshariy "Al-Mufassal fi ilm al-arabiyya" asarida nahv qoidalarini yanada tizimlashtirib, jumla tuzilishining amaliy va nazariy jihatlariga alohida e'tibor qaratgan. Olim ismiy va fe'lliy jumlalar tarkibidagi sintaktik munosabatlarni izchil tahlil qilib, ularning grammatik belgilarini aniq misollar asosida izohlagan. Zamaxshariyning mazkur asari arab grammatikasi bo'yicha eng muhim manbalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Mutarriziyning "Nahv risolasi" asarida esa arab tilidagi jumlalar shakliy jihatdan ismiy va fe'lliy turlarga ajratilib, har bir turning tarkibiy qismlari hamda ularning i'rob xususiyatlari sodda va tushunarli uslubda bayon qilingan. Muallif jumla elementlari o'rtasidagi grammatik bog'lanishlarni o'quvchilar uchun qulay shaklda izohlashi bilan ajralib turadi.

Arab tilining sintaktik xususiyatlarini zamonaviy lingvistika nuqtayi nazaridan tadqiq etgan olimlardan biri Kees Versteegh hisoblanadi. Uning "The Arabic Language" nomli asarida arab tilining tarixiy rivojlanishi, grammatik tizimi hamda jumla qurilishi boshqa semit tillari bilan qiyosiy tahlil qilingan. Muallif arab tilidagi VSO va SVO so'z tartibi, i'rob tizimining sintaktik vazifasi hamda jumla tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarini zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida izohlaydi.

O'zbek arabshunosligida ham arab tili sintaksisiga oid qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Qosimova D. tomonidan Kufa va Basra tilshunoslik maktablarining nahviy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan bo'lsa, "Arab tilining sintaktik xususiyatlari", "Arab tili grammatikasida so'roq gap hosil bo'lish usullari" kabi ilmiy maqolalarda arab tilidagi gap turlari, sintaktik qurilish hamda grammatik vositalarning qo'llanishi yoritilgan. Shuningdek, "Arab tili grammatikasi qo'llanmasi", "Oson nahv" va "Arab tili darslari" kabi o'quv adabiyotlarida mubtado, xabar, fe'l, foil va maf'ul bihning grammatik vazifalari amaliy misollar orqali tushuntirilgan.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyatida ismiy va fe'lliy jumlalar alohida mavzular sifatida yoki nahvning umumiy bo'limlari tarkibida yoritilgan. Biroq ularning grammatik tuzilishi, i'rob xususiyatlari, semantik-uslubiy vazifalari hamda balog'at ilmida qo'llaniladigan jumla tasnifi o'zaro uyg'un holda kompleks tahlil qilinmagan.

Mazkur maqolaning o'ziga xosligi shundaki, unda arab tilidagi ismiy va fe'lliy jumlalar nafaqat klassik nahv qoidalari asosida, balki ularning semantik-uslubiy vazifalari, i'rob tizimi hamda balog'at ilmidagi xabariy va inshoiy jumlalar tasnifi bilan o'zaro bog'liq holda tizimli ravishda tahlil qilinadi. Shuningdek, mavzu mumtoz manbalar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida umumlashtirilib, arab tilini o'rganuvchilar uchun nazariy hamda amaliy jihatdan yaxlit yondashuv taklif etiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tavsifiy-tahliliy metod, qiyosiy-tipologik metod hamda matn tahlili metodlaridan foydalanildi. Material sifatida mumtoz arab nahvshunosligi asarlari (Sibavayhning “Al-Kitob”i, Zamaxshariyning “Al-Mufassal”i, Mutarriziyning “Nahv risolasi”), shuningdek, so‘nggi yillarda o‘zbek arabshunoslari tomonidan chop etilgan ilmiy maqolalar va o‘quv qo‘llanmalari tanlab olindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi bosqichlar amalga oshirildi: birinchi bosqichda ismiy va fe’lliy jumlalarga oid nazariy manbalar yig‘ildi va tizimlashtirildi; ikkinchi bosqichda har ikki jumla turining tarkibiy qismlari (mubtado–xabar, fe’l–foil–maf’ul bih) alohida-alohida tahlil qilindi; uchinchi bosqichda misollar tanlab olinib, ularning i’rob jihatidan tahlili berildi; to‘rtinchi bosqichda olingan natijalar umumlashtirildi va xulosalar chiqarildi.

Tahlil uchun tanlangan misollar klassik va zamonaviy adabiy arab tiliga (fusha) tegishli bo‘lib, ularning grammatik tuzilishi an’anaviy nahv terminologiyasi asosida izohlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Arab tilida ism bilan boshlangan jumla ismiy jumla deb ataladi va u mubtado hamda xabardan tashkil topadi. Mubtado va xabarni o‘zbek tilidagi ega va kesimga qiyoslash mumkin. Ismiy jumlaning birinchi so‘zi mubtado, ikkinchi so‘zi esa xabar deb ataladi.

Mubtado va xabar bir-biri bilan uch jihatdan moslashishi shart: jinsda (muzakkar yoki muannas), sonda (mufrod, musanna yoki jam) va i’robda, ya’ni oxirgi harakatda.

Ismiy jumlaning muhim grammatik xususiyati shundaki, mubtado odatda ma’rifa (aniqlik bildiruvchi ism) bo‘lishi, xabar esa ko‘pincha nakra (noaniq ism) shaklida kelishi kerak. Bu qoida jumlaning mantiqiy izchilligini ta’minlaydi, chunki mubtado - gapda muhokama qilinayotgan aniq narsa, xabar esa u haqidagi yangi ma’lumotdir.

Fe’l bilan boshlangan jumla fe’lliy jumla deb ataladi. Uning birinchi qismi fe’l, keyingi qismi esa foil (harakatni bajaruvchi) bo‘ladi. Zarur holatlarda maf’ul bih (harakat yo‘naltirilgan obyekt) ham qo‘shiladi.

Arab tilida fe’l odatda gap boshida keladi va bu xususiyat ko‘plab boshqa tillardan farq qiladigan o‘ziga xoslikdir. Fe’l gapning boshida kelganda odatda birlik shaklida bo‘ladi, hatto foil ko‘plikda bo‘lsa ham. Bu qoida arab nahvining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

I’rob unsurlari - ism, sifat va fe’llarning oxiridagi harflar orqali ifodalanuvchi kelishik, jins va son ko‘rsatkichlari gapdagi sintaktik munosabatlarni belgilaydi, natijada so‘zlarning o‘rnini o‘zgartirganda ham ma’no buzilmaydi. Bu arab tilining boshqa fusha tillaridan farqlanadigan asosiy xususiyatlaridan biridir.

Ismiy jumlada mubtado va xabar odatda marfu’ holatda (damma bilan) keladi. Fe’lliy jumlada esa foil marfu’, maf’ul bih esa mansub (fatha bilan) holatda keladi. Bu qat’iy i’rob tizimi tufayli gap tarkibidagi so‘zlarning tartibi o‘zgarsa ham, kim harakat bajaruvchisi va kim harakat obyekti ekanligi aniq bo‘lib qoladi (1-jadval).

1-jadval: **Arab tilidagi ismiy va fe’lliy jumlalarning grammatik xususiyatlari**

| Belgi | Jumla ismiyya | Jumla fi’liyya |
|---|---|---|
| **Boshlanishi** | Ism bilan | Fe’l bilan |
| **Tarkibi** | Mubtado + xabar | Fe’l + foil (+ maf’ul bih) |
| **Asosiy i’rob** | Ikkalasi ham marfu’ | Foil marfu’, maf’ul bih mansub |
| **Fe’l–foil moslashuvi** | Tegishli emas | Ko‘plikda ham fe’l birlik bo‘lishi mumkin |

Nahv ilmidan tashqari, balog’at ilmining ma’oniy bo‘limida ham gaplar boshqa mezon asosida tasniflanadi – bu safar so‘zlovchining maqsadi va tinglovchining holatiga ko‘ra. Nahvshunos olim Ahmad Hoshimiy o‘zining “Javahir ul-balag’a” asarida jumlani ikki turga bo‘ladi: jumla al-xabariy (xabar bildiruvchi gap) va jumla al-inshoiy (buyruq, so‘roq, istak kabi ma’nolarni bildiruvchi gap). Inshoiy jumla o‘z navbatida amr (buyruq), nahiy (inkor/taqiq), istifhom (so‘roq), tamanniy (orzu-istak) va nido (undov) kabi besh turga bo‘linadi.

Shunday qilib, arab tilida jumla tuzilishi ikki mustaqil, ammo bir-birini to‘ldiruvchi tasnif tizimiga ega: shakliga ko‘ra (ismiy/fe’lliy) va mazmun-maqsadiga ko‘ra (xabariy/inshoiy) tasnif.

Ismiy jumlada mubtado va xabar o‘rtasidagi moslashuv qat’iy qoidalarga bo‘ysunadi. Agar mubtado jamlanma (jamlanuvchi) bo‘lsa, xabar ham son jihatdan mos kelishi lozim, lekin ba’zi holatlarda - masalan, aqlsiz jonzotlar yoki jonsiz narsalarni bildiruvchi ko‘plik otlar mubtado bo‘lganda - xabar birlik muannas shaklida kelishi mumkin.

Fe’lliy jumlada esa fe’l–foil moslashuvi boshqacha tartibga ega. Agar foil fe’ldan keyin kelsa (bu - standart VSO tartibi), fe’l songa ko‘ra emas, faqat jinsga ko‘ra moslashadi va odatda birlik shaklida qoladi. Biroq, agar foil fe’ldan oldin kelsa (bu holat SVO tartibiga o‘xshaydi), fe’l ham songa, ham jinsga to‘liq moslashishi lozim bo‘ladi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, arab tilidagi ismiy va fe’lliy jumlalarning farqi shunchaki shaklga oid emas, balki chuqur semantik-uslubiy ahamiyatga ega. Ismiy jumla ko‘pincha barqaror holat, sifat yoki umumiy haqiqatni ifodalash uchun qo‘llanilsa, fe’lliy jumla dinamik harakat, jarayon yoki voqeani ifodalashga xizmat qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda qayd etilishicha, matn korpuslari tahlil qilinganda, ismiy jumlaga nisbatan fe’lliy jumla ancha ko‘proq qo‘llanilar ekan. Bu holat arab tilining harakat va voqealarni tasvirlashga moyilligidan dalolat beradi, xususan, tarixiy va hikoyaviy matnlarda bu tendensiya yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

I’rob tizimining mavjudligi arab tilida so‘z tartibining nisbatan erkin bo‘lishiga imkon beradi. Bu esa Yevropa tillaridagi qat’iy SVO (ega–fe’l–to‘ldiruvchi) tartibidan farqli o‘laroq, arab tilida VSO tartibining ustunlik qilishiga va zarur bo‘lganda so‘z tartibini uslubiy maqsadlarda o‘zgartirish imkoniyatiga olib keladi. Shu bilan birga, mazkur erkinlik mutlaq emas - u i’rob tizimi orqali qat’iy nazorat qilinadi, aks holda gapning mazmuni buzilishi mumkin edi.

Mumtoz tilshunoslar, jumladan, Zamaxshariy o‘zining “Al-Mufassal” asarida qoidalarni qisqa va halaqit bermaydigan tarzda bayon qilishga harakat qilgan, bu esa keyingi avlod nahvshunoslari uchun jumla tuzilishini o‘rgatishning uslubiy asosini yaratdi. Shuningdek, Kufa va Basra tilshunoslik maktablari o‘rtasidagi bahslar (masalan, hazf qilingan fe’l masalasida) jumla tuzilishi nazariyasining yanada chuqurlashishiga sabab bo‘lgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, arab tili o‘quvchilari uchun ismiy va fe’lliy jumlalarning farqini, ayniqsa mubtado–xabar va fe’l–foil munosabatlarining i’rob jihatdan qanday belgilanishini tushunish nahv ilmini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishning kaliti hisoblanadi.

Shuningdek, fe’l–foil moslashuvidagi son jihatidan farqlanish (foil fe’ldan oldin yoki keyin kelishiga qarab) arab tilini chet tili sifatida o‘rganuvchilar uchun eng ko‘p xato qilinadigan mavzulardan biri hisoblanadi. Shu sababli, ushbu qoidani alohida ta’kidlab, aniq misollar bilan tushuntirish o‘quv jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Pedagogik nuqtayi nazardan, ismiy va fe’lliy jumlalarni qiyoslab o‘rgatish, ularning tarkibiy qismlarini jadval va sxemalar orqali vizual tarzda ko‘rsatish o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq va tezroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida shuningdek aniqlandiki, ismiy va fe’lliy jumlalar orasidagi tanlov ko‘pincha uslubiy maqsadga bog‘liq bo‘ladi: yozuvchi yoki notiq voqeani dinamik va jonli tasvirlashni istasa, fe’lliy jumladan foydalanadi; agar u biror holat, sifat yoki doimiy haqiqatni ta’kidlashni maqsad qilsa, ismiy jumlaga murojaat qiladi. Bu holat arab balog’at ilmida alohida o‘rganiladigan uslubiy tanlov masalasi bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Arab tilida jumla tuzilishi ikki asosiy turga bo‘linadi: jumla ismiyya (ismiy jumla) va jumla fi’liyya (fe’lliy jumla), ular boshlanish so‘zi turkumiga ko‘ra farqlanadi.
2. Ismiy jumla mubtado va xabardan, fe’lliy jumla esa fe’l, foil va zarur hollarda maf’ul bihdan tashkil topadi; har bir tarkibiy qism o‘ziga xos i’rob qoidasiga bo‘ysunadi.
3. I’rob tizimi arab tilidagi so‘zlarning grammatik vazifasini belgilovchi asosiy vosita bo‘lib, u so‘z tartibi o‘zgarganda ham ma’noning saqlanishini ta’minlaydi.
4. Mazmun-maqsad nuqtayi nazaridan gaplar yana jumla al-xabariy va jumla al-inshoiy turlariga bo‘linadi, bu esa nahv va balog’at ilmlarining o‘zaro chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.
5. Amaliy tahlil shuni ko‘rsatdiki, fe’lliy jumla matnlarda ismiy jumlaga nisbatan tez-tez qo‘llaniladi, bu esa arab tilining harakat va jarayonni ifodalashga bo‘lgan uslubiy moyilligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, arab tili jumla tuzilishini chuqur o‘rganish nafaqat nahv ilmini, balki umuman arab tili va uning adabiy-uslubiy xususiyatlarini to‘g‘ri anglash uchun zaruriy poydevor hisoblanadi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu mavzuni zamonaviy matn korpuslari asosida statistik tahlil qilish istiqbolli yo‘nalish bo‘lishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Sibavayh, Amr ibn Usmon. Al-Kitob. - Qohira: Al-Xanji nashriyoti, tahrir nashri.
2. Zamaxshariy, Mahmud ibn Umar. Al-Mufassal fi ilm al-arabiyya. - Makka, 1121-yil qo‘lyozmasi asosidagi nashr.
3. Mutarriziy, Abul Fath Burhoniddin Nosir ibn Abul Makorim Abdusayyid. Nahv risolasi. - Xorazm, XIII asr.
4. Hoshimiy, Ahmad. Javahir ul-balog’a fi al-ma’ani wa al-bayan wa al-badi’. - Qohira, an’anaviy nashr.

5. Versteegh, K. The Arabic Language. - Edinburgh: Edinburgh University Press, 2014. - P. 90.
6. Mutarriziyning "Nahv risolasi" asari tahlili // Sharq tillari tadqiqi. - Toshkent: Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasi. - B. 161.
7. Arab tili grammatikasida so'roq gap hosil bo'lish usullari // Journal of Social Sciences (OJP). - DOI: 10.37547/supsci-ojp-05-03-88. - B. 755–762.
8. Arab tilining sintaktik xususiyatlari // Journal of Social Sciences (OJP). - DOI: 10.37547/supsci-ojp-06-I3-73. - B. 712–724.
9. Qosimova, D. Kufa va Basra tilshunoslik maktablari: qiyosiy tahlil // Journal of Social Sciences (OJP). - DOI: 10.37547/supsci-ojp-05-03-92. - 2021. - B. 786–795.
10. Arab tili grammatikasi qo'llanmasi: mubtado va xabar. - 7-dars. -arabic.uz.
11. Oson nahv (birinchi kitob). - www.arabic.uz nashri.
12. Arab tili darslari o'quv qo'llanmasi. - Sintaksis va morfologiya bo'limlari.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI**

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №8(1)**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.